


TILNING LEKSIK QATLAMIDA TOPONIMLARNING O‘RNI, ULARNING TASNIFLANISH TAMOYILLARI VA TARJIMA QILISH MASALALARI

Sadullayeva Shoxida Baxodirovna
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali
stajyor-o‘qituvchisi

THE PLACE OF TOPONYMS IN THE LEXICAL LAYER OF THE LANGUAGE, PRINCIPLES OF THEIR CLASSIFICATION AND TRANSLATION ISSUES

Sadullayeva Shokhida Bakhodirovna
Branch Urgench branch of Tashkent University of
Information Technology
trainee-teacher



[https://orcid.org/
0009-0000-3612-8725](https://orcid.org/0009-0000-3612-8725)

E-mail:
[sadullayeva96@inbox.
ru](mailto:sadullayeva96@inbox.ru)

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilning leksik qatlamida toponimlarning o‘rni, ularning ahamiyati, toponim tushunchasiga berilgan izohlar va ularning turli tillar doirasida kelib chiqish va hosil bo‘lish jihatlari atroflicha o‘rganilgan. Joy nomlari ya‘ni toponomiyalarning hosil bo‘lish jarayonida xuddi shu joyda yashovchi millat va elatlarning tili, tilning strukturaviy tuzilish jihatlari, olamni anglash xususiyatlari bilan bir qatorda xuddi shu xalqning urf-odatlarini, rasm-rusm hamda an‘analari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: toponim, nomlanish xususiyatlari, obyekt, joy nomlari, lingvistik motivatsiya, ekstralingvistik motivatsiya.

Abstract: The crucial role of toponyms in the lexical layer of language, their importance, explanations given to the concept of toponym, as well as aspects of their origin and formation within different languages are studied in detail throughout in this article. During the process of formation of place names, toponymies, the language of that nation and peoples living in the same place, the structural aspect of that language, the characteristic points of understanding of the world, as well as their customs, shared traditions and beliefs are of great importance.

Key words: toponym, naming features, building, place names, linguistic motivation, extralinguistic motivation.

Kirish. Tilning leksik qatlamlarining tahlilida toponimlarning o‘rni va ahamiyati muhim hisoblanadi. Joy nomlarini tahlil qilish, ularning kelib chiqish tarixini tahlil qilish va ularni tasniflash leksik qatlamlarni tahlil qilishda ahamiyatlidir. Mavzuni tahlil qilish barobarida bir nechta olimlarning ishlari tegishlicha tahlil qilindi, shu jumladan V.D.Belenkaya, A.V.Superenkaya, O.A.Leonovich kabi rus tilshunoslarining toponomika va onomastika sohasiga oid bo‘lgan ilmiy ishlari, tadqiqotlar, xulosalari tahlil qilindi va o‘rganib chiqildi. Yuqoridagi olimlar bilan bir qatorda E.M.Murzaev, A.X.Smit va

V.A.Juchkevich kabi ilmiy tadqiqot olib boruvchilarning ishlari ham ahamiyatli bo‘lib ushbu sohani yoritishga katta yordam beradi. Toponimlarni tahlil qilish maqsadida ingliz olimlaridan Smith A.H.ning “English Place-Names Elements” asari bilan bir qatorda Gerych G. “Transliteration of Cyrillic Alphabets” kabi ishlaridan misollar, namunalar olindi. Ikki tildagi toponimlar va ularning tarjima qilish sohasidagi muammolar turli nuqtai nazardan tahlil qilindi. Tahlil jarayonida o‘zbek tilshunos olimlarining ishlari bu dolzarb muammolarni yoritishda keng ko‘lamli ahamiyatga ega bo‘ldi. Quyidagi ishlar

tahlil qilindi: S.Qoraevning “Toponimika – joy nomlari haqidagi fan” (1980), L.Karimovning “O‘zbek tilida toponimlarning o‘rganilishi” (1982), Enazarov T.J.ning “O‘zbekiston toponimlari: lug‘aviy asoslari va etimologik tadqiqi yo‘llari” (2006). Bu qimmatli manbalardan tashqari T. Nafasov, V. Nafasovning “O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati” va “Toponimika” kabi ishlari tahlil qilindi. Ushbu ishlarda ko‘rsatilgan namuna va misollar, ilmiy nazariy bayonlari tadqiq qilindi. S.Karimov, S.Bo‘rievlarning “O‘zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida” asarida toponomikaning rivojlanishi v bugungi kundagi ahamiyati tegishlicha yoritilgan bo‘libgina qolmasdan, bu sohadi hali ham e‘tiborga olinishini kutib turgan bir qancha masala va jihatlar borligi alohida ta‘kidlab o‘tilgandir. N.Oxunovning “Joylar va nomlar” (1986), “Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari” asarlarida joylar va ularning nomlariga alohida urg‘u berilgan bo‘lib, toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari, ushbu xususiyatlarning umumiy va farqli jihatlarini keng yoritib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuga oid bir nechta ilmiy ishlar, maqolalar o‘rganilib, tegishlicha tahlil qilinib, qiyoslash va taqqoslash usullaridan atroflicha foydalanildi. O‘zbek va ingliz tilidagi geografik nomlar va ularning tarjimalaridagi o‘xshashliklar va farqli jihatlar qiyoslandi, va ularning umumiy bo‘lgan jihatlarini aniqlash ustida ishlar olib borildi. Shu bilan bir qatorda tavsiflash va tasniflash metodlaridan mavzuni to‘liq ochib berish, o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi uchun keng qamrovda foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Mavzuni to‘laqonli tushunish va tahlil qilish uchun toponim so‘zi va uning kelib chiqishi, ma‘nosiga alohida ahamiyat berib, to‘xtalib o‘tishimiz joizdir. Toponim (ya‘ni geografik nom) – grek tilidan olingan bo‘lib, “onoma” – nom, “topos” – joy so‘zlarini anglatib, joy nomi, jy ismi degan ma‘nolarni anglatadi. Toponim “alohida geografik joy (aholi punkti, daryo, yer)ning xos nomi” [1].

Akademik L.V.Sherba toponimlarga o‘ziga xos nomlar sifatida yondashadi va uning fikriga ko‘ra: “Nutqda qo‘llanilgan o‘ziga xos nomlar hech qanday ma‘noga ega bo‘lmasa ham, ular

umumiy otlardan chuqur farq qilsa ham, ularni so‘z deb hisoblashimiz kerak; ular so‘z bo‘lgani uchun ularni lug‘atdan chiqarib tashlash uchun hech qanday sabab yo‘q. Eng muhim masala shundan iboratki, “tegishli nomlarning ma‘nosi” nima ekanligini aniqlashdir [2].

Bu borada boshqa tilshunos olimlarning fikrlari ham tegishli ahamiyatga egadir. Jumladan, N.V.Podolskaya tegishli nom, ya‘ni “onim” deganda tegishlicha nom bilan ataluvchi obyekt boshqa obyektidan o‘ziga xos tarzda ajratib turish uchun xizmat qiluvchi so‘zlar yoki iboralar majmuini tushunamiz, ya‘ni bu o‘z navbatida nomni individuallashtirish va identifikatsiya qilish uchun xizmat qiladi, deya ta‘kidlab o‘tgan [2].

Til tizimining tahlil qilish jarayonida toponimlarning o‘rni va qiymati alohida ahamiyatga ega. Joy nomlari - ya‘ni toponimlar ko‘p hollarda ma‘lum bir tilda amal qiluvchi til qoidalari va me‘yorlariga asoslangan holda, xuddi shu xalqning tarixi, etnik kelib chiqishi, urf-odat va an‘analarini o‘zida mujassam etgan holda yaratiladi hamda ma‘lum bir tilning qonun qoidalariga asoslangan holda, ushbu tilning so‘z yasash modellariga ko‘ra yaratiladi va tuziladi. Toponimlarning tuzilishi va yasashida yasama so‘zlar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, faol tarzda qo‘llaniladi. Toponomik atamalarining milliy o‘ziga xosligi shu bilan asoslangan bo‘lishi ehtimoldan holi emas, shuning uchun joy nomlari, xususan, geografik obyektlarning nomlari ko‘pgina hollarda ma‘lumot beruvchi manba sifatida ko‘riladi [3].

O‘tgan asrning boshlarida fanning alohida tarmoqlari sifatida qaralib kelingan bir qancha fanlar shakllanib, ilmiy atama, so‘z, iboralarning ma‘lum tushuncha, qonuniyat va qoidalarini lug‘aviy izohlash tartibga solina boshlandi. Ko‘rinib turibdiki, toponimika – joy nomlari, ularning kelib chiqishi etimologiyasi, semantik ma‘nosi, rivojlanishi bosqichlari va holatlari, hozirgi holati, imlosi va talaffuzini o‘rganuvchi integratsiyalashgan fan bo‘lib, u geografiya, tarix va tilshunoslik ma‘lumotlaridan foydalangan holda uchta bilim sohasini tutashtiradi [4].

Toponimika faniga oid bo‘lgan xuddi shunday fikrlar olim O.A.Leonovich tomonidan

ham bildirib o'tilgan o'lib, u bu fanga quyidagicha izoh berib o'tadi: "Toponimika – yunoncha topos "joy, mamlakat" + onyma "nom" so'zlarining qo'shilishidan hosil qilingan bo'lib, tilshunoslik, tarix va geografiya kabi fanlarning o'zaro bir nuqtada tutashuvida vujudga kelib, rivojlanib borayotgan keng qamrovli chegaralararo fandır [5].

V.A Nikonov esa toponimlarning tarixiy ahamiyati bebaho ekanligini aytib o'tib, bu hodisalar va nomlar tarix uchun haqiqiy boylik degan xulosaga keladi. Uning fikriga ko'ra, har xil tarixiy davrlarga oid bo'lgan geografik joy nomlarining bir hududda - ya'ni bir nuqtada uchrashi va aniq bir joyga tegishli birlashtirilib qo'yilishi, ushbu nom berilgan hududning qadimiy tilini tiklashga va uning tarqalish chegaralarini belgilab olishga zamin yaratadi [6].

Toponimlarga xuddi shu tarzda juda ko'plab olimlar turli nuqtai nazardan qarab ta'riflar berib o'tishgan bo'lishiga qaramasdan, tilshunoslik nuqtai nazaridan mavzuni yoritilishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, toponim so'zining eng batafsil ta'rifi I.P. Litvin tomonidan berilgan bo'lib, u xuddi shu tushunchani quyidagicha ifodalashga va yoritishga harakat qiladi: "to'liq toponimik formulaning individuallashtiruvchi elementi to'liq toponimik formulaga tegishli nom va unga qo'shiladigan geografik atama (umumiy ot) mavjud, bu nom qaysi turdagi geografik obyektlarga tegishli ekanligi tushuntiriladi" [7].

Tilning lug'at tarkibiga kiruvchi toponimiyalar majmui ham o'zining lug'at tarkibi bilan ham ajralib turadi: bu toponimiyalarda nomenklaturaviy lug'at boshqa jihatlariga qaraganda ustuvorlik qiladi, biroq shu jihatdan ismlar morfologiyasi tilga qarab bir oz farqlar va nomutanosibliklarni ko'rsatib o'tadi [3].

Tilshunoslikning zamonaviy metodologiyasi toponimikaga keng qamrovga ega bo'lgan va ko'p usulli yondashuv sifatida qarab eng samarali yondashuvni aniqlash imkonini yaratib beradi. A.Beletskiy bu boradagi o'z fikrlarini bayon etgan holda quyidagilarni ta'kidlab o'tadi, "har qanday tabiiy ravishda kelib chiqqan tilning lug'at boyligi antropotsentrizm va dunyoning inson tafakkurida aynan shu dunyoga nisbatan gavdalangan antropomorfik proyeksiyasi asosida taraqqiy topib

rivojlanganligi bois, baribir har bir sohani tadqiq qilish jarayonida "inson" omiliga murojaat qilish eng tabiiy va aniq pozitsiyalarni belgilab beradigan jarayonlardan biri ekanligini ta'kidlash joiz" [2].

Joy nomlarining shakllanish usullarini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu hodisani norasmiy joy nomlarini shakllantirish jarayonida ikki turga ajratish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Ulardan birinchisi ichki yoki lingvistik motivatsiya bo'lsa, keyingisi ekstralingvistik (tashqi) motivatsiya hisoblanadi [3].

Ushbu hodisalarning birinchisi, ya'ni lingvistik motivatsiya asosida rasmiy nomlarning lingvistik o'zgarishlarga uchrashi natijasida paydo bo'lgan taxallus va nomlarning yaratilishi ahamiyatli hisoblanadi:

- tushurib qoldirish va qisqartirish asosida hosil bo'lgan ko'pchilik uchun tushunarli bo'lib qolgan taxallus va nomlar. Misol sifatida quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin: NY, NYC (Nyu-York), L.A, La-la land (Los-Anjeles), Tash (Toshkent), Chi-Town (Chikago) va boshqa shunga o'xshash nomlar;

- toponimiyalarning boshqa geografik obyekt nomini bildiruvchi yoki salbiy ma'noga ega bo'lgan boshqa biron so'z bilan ifodalanishi ham keng uchraydigan holatlardan hisoblanadi. Bunda ifodalanayotgan joy o'zining qisman nomini saqlab qoladi yoki butunlay boshqacha o'xshashlik asosida qo'yilgan nom bilan atala boshlaydi. Misol tariqasida quyidagi joy nomlarini keltirib o'tishimiz joiz bo'ladi: Angel Town, Smog Angeles (Los-Anjeles), Screwston (Xyuston), Shitcago (Chikago) va shunga o'xshash boshqa taxallus va joy nomlari.

Ikkinchi yirik qism ekstralingvistik oqimlar natijasida yuzaga keladigan taxallus va toponimik nomlarni o'z ichiga qamrab oladi. Bunda tashqi omillar, ya'ni tashqi motivatsiya joyni tavsiflashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nomlarni quyidagi guruhlariga bo'lishimiz, ularni yaxshiroq tushunib olishimizga imkon tug'diradi.

Bu guruhlarining dastlabkisi, bir komponentli nominatsiyalar hisoblanadi. Quyidagi joy nomlari bir komponentli nominatsiyalarga yorqin misol bo'la oladi: Metroplex (Dallas), Lotusland,

Lotusvill (Los-Anjeles), Metropolis, Gotham (Nyu-York) va boshqalar.

Ikkinchi guruh esa o'z ichiga frazeologik nominatsiyalarni oladi. Bu guruhga quyidagi toponimlarni kiritishimiz mumkin bo'ladi: The Big Apple, The Capital of the World (Nyu-York), the Entertainment Capital of the World (Los-Anjeles), City by the Lake (Chicago), Space City (Houston), The Athens of America, The City That Loves You Back (Philadelphia), City of Hate (Dallas); The Capital of Silicon Valley, South Bay (San Jose).

Joy nomlari tilning lug'at tarkibiga kirgani holda ma'lum lisoniy qoliplarga bo'ysunadi va tilshunoslikning bir qismi sifatida o'rganiladi. Hozirgi bosqichda lingvistik jihat ustuvor hisoblanadi. Toponimlarni kelib chiqishiga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin: tabiiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan rivojlangan toponimlar (Kiyev, Pskov, Suzdal, Tuproqqa'la) va ongli ravishda yaratilgan toponimlar. Ikkinchisi, qoida tariqasida, yodgorlikdir, ijtimoiy-tarixiy yoki mafkuraviy ma'noga ega (Stalingrad, Leningrad) [3].

Xulosa va takliflar. Joy nomlari tilshunoslikdagi leksikaning ajralmas muhim bir bo'lagi hisoblanib, ular antroponimlardan bir qancha tuzilish jihatlari bilan farq qiladi. Ular asosan 2 ta yasalish usuli yordamida yaratiladi: ekstralingvistik va lingvistik motivatsiya vositalari yordamida. Bundan tashqari ularni ma'nosiga ko'ra ham guruhlarga ajratishimiz mumkin. Birinchi guruhga tabiiy taraqqiyot natijasida hosil bo'lgan joy nomlari kirsam, ikkinchi guruhga ijtimoiy, mafkuraviy va tarixiy ma'nolarga ega bo'lishi natijasida yuzaga kelgan joy nomlari kiradi. Joy nomlari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lishiga qaramasdan, bu borada qilinadigan ishlari hali hanuz ko'pligicha qolmoqda. Bu borada ayniqsa toponimlar inson va uning dunyoni qabul qilish nuqtai nazaridan tahlil qilish, eng ahamiyatli masalalardan biri hisoblanadi va bu borada qilinadigan ishlar boshqa ilmiy ishlarga asosiy g'oya sifatida xizmat qilishiga aminmiz.

ADABIYOTLAR (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Толковый словарь Ожегова [Электронный ресурс]. – Словари и энциклопедии- Режим доступа <http://endic.ru/ozhegov/Toponim-35639.html>
2. Прошунин Н.А. Состав и структура топонимов Белогорского региона - Белгород 2017. – С. 9-13.
3. Чэнь Чэнь. Национальная специфика имени собственного: топонимический аспект – Благовещенск, 2016. – С. 90.
4. Словари и энциклопедии на Академик [Электронный ресурс]. – Академик- Режим доступа <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/30887>
5. Леонович О.А. В мире английских имен. [Текст]: учебное пособие по лексикологии / О.А.Леонович– М.: ООО «Издательство АСТ»: ООО «Издательство Астрель», 2002. – С. 62.
6. Никонов В.А. Введение в топонимику [Текст]: Изд. 2-е.- М.: Издательство ЛКИ, 2011. – С. 11.
7. Литвин И.П. О структуре и функции названий физико-географических объектов в своей и чужой среде (на материале некоторых европейских языков) [Текст]: / И. П. Литвин // Ономастика. Типология. Стратиграфия. – М.: Наука, 1988. – С. 68.
8. Gerych G. Transliteration of Cyrillic Alphabets. Ottawa: Ottawa University, April 1965. – 126 p.
9. Smith A.H. English Place-Names Elements. V. I – II, Cambridge, 1956. – 680 p.
10. Nafasov T. Janubiy O'zbekiston toponimiyasining etnolingvistik analizi. – T.: O'qituvchi, 1985. – 83 b.
11. Qorayev S. Toponimika. Toshkent, 2006. – 246 b.
12. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi. Bibliografik ko'rsatkich. – Namangan, 2008. – 168 b.
13. Enazarov T.J. O'zbekiston toponimlari: lug'aviy asoslari va etimologik tadqiqi yo'llari. – Toshkent, 2006. – 56 b.
14. Каримов С. Бўриев С. Ўзбек топонимикаси тараккиёт босқичида. – Тошкент: Фан, 2006. – 244 b.